YUKSALISH VA TARAQQIYOT YO‘LIDA

Akmal Amrulloyevich Xamidov,
Buxoro viloyat pedagogik mahorat markazi direktori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
akmalkhamidov89@gmail.com
tel: +998997007474

Annotatsiya: *Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish maqsadida, zamonaviy ta’lim tendesiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali ilg‘or ish tajribalar va pedagogik texnologiyalar va xorijiy baholash tizimini amaliyotga oqilona joriy etish, qo‘llash ishlari jadal yo‘lga qo‘yilmoqda. Mazkur maqolada pedagoglarning va tarbiyachilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishni zamonaviy ta’lim muhitida XXI asr ko‘nikmalarini shaklantirish va takomillashtirish o‘ta muhim masala ekanligi va ta’lim oluvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini samarali qo‘llashning yangi amaliyotini joriy etish orqali Buxoro viloyati mahorat markazida erishilayotgan natijalar tadqiq etilib, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagoglarning va tarbiyachilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishi, raqamli texnologiyalar, pedagogik innovatsiya, ta’lim sifati.*

На пути современности и развития

Хамидов Акмаль Амруллоевич,
директор Бухарского областного центра педагогического мастерства, Доктор философско-педагогических наук

Аннотация: *Сегодня, в целях повышения качества образовательного процесса, посредством рационального использования возможностей современных образовательных тенденций, активно внедряются передовые методы работы, педагогические технологии и зарубежные системы оценки. В статье показано, что непрерывное профессиональное развитие учителей и педагогов является чрезвычайно важным вопросом в формировании и совершенствовании навыков XXI века в современной образовательной среде. На основе результатов, достигнутых в Бухарском региональном центре профессиональной подготовки благодаря внедрению новых практик эффективного применения современных тенденций в развитии жизненных навыков, разработаны методические рекомендации.*

Ключевые слова: *непрерывное профессиональное развитие учителей и педагогов, цифровые технологии, педагогические инновации, качество образования.*

On the path of improvement and development

Akmal Amrulloyevich Khamidov,
Director of the Bukhara Regional Pedagogical Skills Center, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences

Abstract: *Nowadays, the actoions are being intensively underway to rationally introduce and apply advanced practices, pedagogical technologies, and internationasl assessment systems into practice through the rational use of modern educational trends in order to improve the quality of the educational process. This article reviews the results achieved in the Bukhara Regional Pedagogical Skills Center on effectively applying modern trends and proposes conclusions and recommendations for developing trainee teachers’ life skills by introducing a new practice.*

Keywords: *continuous professional development of teachers and educators, digital technologies, pedagogical innovation, quality of education.*

“Tarix sinovlaridan o‘tgan haqiqat shuki, o‘zini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan, vaqtni – imkoniyatga, imkoniyatni – yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq – buyuk xalqdir. Bunday xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, ko‘zlagan murod – maqsadlariga albatta erishadi”.

Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bugungi hayotimizdagi rivojlanishning keskin jadalashuvi ta’lim paradigmasini dinamik o‘zgartirmoqda. Shu bois ta’limiy standartlar va o‘quv dasturlari raqamli texnologiyalar, uzluksiz ta’lim olish tamoyili va kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi faqat egallangan bilim va ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish bilan emas, balki undan mustaqil ravishda foydalana olish, hayotiy faoliyatlarida amalda qo‘llay olishi va turli ijtimoiy-psixologik munosabatlarda namoyon qila olishi ehtiyojlarini ta’minlaydi.

Respublikamizda ta’lim tizimining uzluksizligi, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash talablaridan elib chiqqan holda, umumta’lim fanlari mazmunining izchilligini, aloqadorligini, uzviyligini ta’minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar va xususiy kompetensiyalar belgilangan. Ya’ni umummadaniy, ijtimoiy faol fuqarolik, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish kommunikativ, raqamli texnologiyalar bilan ishlash, matematik savodxonlik, hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish uchun ilmiy nufuzga ega bo‘lgan mahoratli o‘qituvchilarni keng jalb etish zarur bo‘ladi.

Buning natijasida o ‘quvchilarda o‘z bilimlarini hayotda amaliy qo‘llay olish, raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ta’lim olish, hamda o ‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga muvofiq ravishda kasb-hunar tanlash, shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish blan birga jismoniy kamolotni ham ta’minlay olish sharoitini yaratadi

Darhaqiqat, dunyodagi barcha davlatlarda jadal rivojlanish konsepsiyasi birinchi navbatda ta’lim tizimini isloh qilishdan boshlangan.

Bunday salmoqli vazifalarni samarali bajarish oshirish maqsadida zamonaviy ta’lim muhitida pedagog va tarbiyachilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish va shaklantirish o‘ta muhim masaladir.

Ta’lim oluvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini qo‘llashning yangi amaliyotini joriy etish va bu borada quyidagi asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratilishi lozim.

Birinchidan, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan fanlar va maktabgacha ta’lim tashkilotidagi mashg‘ulotlarni integratsiya qilish, raqamli vositalar, multimediali ilovalar va ta’limiy platformalardan foydalanish dolzarb ijtimoiy zarurat hisoblanadi. Bu pedagoglar va tarbiyachilarda texnologik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun muhim sanaladi. Shu bilan birga, ta’lim oluvchilarni zamonaviy texnologik ko‘p tarmoqli media muhitda faoliyat olib borish malakalarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosida ulardagi ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirish joiz. Shuningdek kognitiv jarayonlarni rivojlatirish orqali dunyoqarashi va shaxsiy yo‘nalganlikni kengaytirish uchun ularga turli ta’limiy vazifalar berish, metodogik loyihalarda faol ijtimoiy-hissiy yondashuv bilan ishtirok etishga yo‘naltirish lozim. Bu orqali ular har qanday muammo, topshiriq va masalalarni muammolarni 4k modeli bilan hal qilishga o‘rgatiladi.

Uchinchidan, o'zaro hamkorlik va shaxslararo hissiy-emotsional ko'nikmalari sifatida workshop, prosessinjg usullaridan foydalanish jamoada ishlash uchun muhim sanaladi. Kichik guruhlarda proektiv loyihalar ustida mustaqil ishlash bilan o'zaro yordam, qo'llab quvvatlash, birgalikda hal qilish ko'nikmalarini taraqqiy ettiradi.

To'rtinchidan, hayotiy lahzalarda emotsional intellektdan samarali foydalanish uchun ularga o'z his-tuyg'ularini tushunish va boshqarish, boshqalar bilan empatik munosabat ko'rsata olish ularnig his tuyg'ularini anglash orqali samarali kommunikasiya qila olish, samimiy munosabatda bo'lish malakalarini o'zlashtirish muhimdir. Chunki shundagina hayotiy hodisalarda har xil to'siqlardan oson enga olishni, stress va depressiv holatini muvaffaqiyatli bartaraf etish imkoni bo'ladi.


Shunday qilib, zamonaviy pedagog har bir ta'lim oluvchining individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga e'tibor berib, har bir bolaning o'ziga xos traqqiy qilish va senzitiv davriga egaligini bilishi lozim. Shu asosda ularning individual ehtiyojlariga mos individual rivojlanish dasturlari tuzishi kerak. Xuddi shular XXI asr hayotiga muvaffaqiyatli tayyorlash uchun muhim asos hisoblanadi. Shundagina yosh avlodning to'laqonli rivojlanishini amalga oshirish imkoni yaratiladi.

Yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida zamonaviy ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari yuzasidan ilmiy, nazariy va amaliy seminar-treninglar, metodik turlar, mahorat dars-mash-g'ulotlari hamda konferensiyalarni tashkil etish negizida pedagoglarni yangi zamonaviy metodikalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

Yuksalish va taraqqiyot yo'lidan dadil odimlayotgan, o'z vaqtida ta'lim va tarbiya sohasida "Buxoro tajribasi" ning tashabbuskori va targ'ibotchisi bo'lgan Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazining bugungi kundagi faoliyatining ayrim ibratli jihatlari haqida munosabatimizni havola etmoqchimiz.

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazida Yangi O'zbekistonning tayanch ustuni bo'lgan bilim, ta'lim va tarbiya sohasida yuksalish va taraqqiyot yo'lida keyingi yillarda ibratli ishlar amalga oshirilmoqda.

Aytish joiz, ta'lim sifatini yanada oshirish maqsadida markazning moddiy-texnika bazasini takomillashtirish borasida dadil qadamlar tashlanmoqdi. Bu borada maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyat hokimligi va xalqaro tashkilotlarning amaliy ko'magi bilan zalvorli ishlar amalga oshirildi. Buxoro viloyati hokimi B.Zaripovning tashabbusi bilan markaz o'quv binosining birinchi qavati mahalliy budjet mablag'lari hisobidan va ikkinchi qavati YUNESCO xalqaro tashkiloti tomonidan **"Ishonch"** loyihasi doirasida joriy ta'mirlanib, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi.





Shuningdek, 2026-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari asosida davlat budjetidan **7,8 mlrd** so‘m mablag‘ ajratilib mahorat markazining faollar zali, yotoqxona, kutubxona va oshxona qismi joriy ta’mirlanmoqda. Bu esa davlatimizda ta’lim tizimiga berilayotgan e’tiborning yorqin namunasidir.

Markaz rahbariyatining tashabbusi va jamoaning faolligi bilan o‘quv xonalari ixcham va shinam holatga keltirildi hamda zallar anvoyi gullar bilan bezatildi. Malaka oshirish kurslarida samarali va sifatli ta’lim berish uchun to‘liq shart-sharoitlar yaratildi. Bu yaratilgan sharoitlardan malaka oshirishga kelgan pedagoglar va tarbiyachilar mamnun bo‘lib, o‘z bilimlarini zamon talablari asosida rivojlantirib borishmoqda.

Bu o‘z navbatida mahorat markazi rahbariyati tomonidan jamoani yangi marralar sari yetaklashga undamoqda. Mahorat markaziga ko‘plab xalqaro tashkilotlar vakillarining tashrif buyurishi hamda xorijiy ta’lim tajribasini almashish muhitining yaratilganligi yangi-yangi yutuqlarga omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, oxirgi yillarda markaz xalqaro tashriflar, xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish maskaniga aylandi.

Hozirda ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va psixologik tendensiyalaridan:

- Globalizasiya
- Internalizasiya
- Pragmatizasiya
- Insonparvarlashtirish
- Internalizasiya
- Individuallashtirish
- O‘zgaruvchanlik yoki diversifikatsiya
- Yaxlitlik
- Psixologiyani zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llash.
- Standartlashtirish
- Raqamlashtirish ya’ni o‘qitishning yangi modellarini yaratish va qo‘llash
- Texnologiyalashtirish ta’lim turlarining poydevori hisoblangan maktabgacha va boshlang‘ich ta’limdan boshlash yuqori pog‘onalarigacha har tomonlama maqsadga muvofiq samarali foydalanish joiz.

Ta’lim-tarbiya jarayonining sifati, o‘quv-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni samarali joriy etilishi ko‘p jihatdan pedagogning mahorati, innovativ faoliyati va o‘quvchilarni baholashda zamonaviy xorijiy baholash tizimidan samarali foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish maqsadida, ilg‘or ish tajribalar va pedagogik texnologiyalar va xorijiy baholash tizimini amaliyotga oqilona joriy etish qo‘llash ishlari jadal yo‘lga qo‘yilmoqda. Bunda umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining oliy ta’lim muassasalari hamda hududiy Pedagogik mahorat markazlari professor-o‘qituvchilari bilan hamkorligi yo‘lga qo‘yilib, umumta’lim maktablarida ilg‘or tajribali o‘qituvchilar mahorat darslarini tashkil etmoqdalar va xalqaro baholash tizimini ekperimental qo‘llash ishlariga ishtirok qilmoqdalar.

Aytish joizki, o‘qituvchilarning intellektual salohiyatini, metodik ehtiyojini, o‘quvlarning monitoringini, ularning samaradorligi va amalda qo‘llashning qulayligini turli anketa va so‘rovnomalar asosida aniqlab, tegishli tavsiya va takliflarni taqdim etish mexanizmi to‘liq yo‘lga qo‘yilsa, mazkur jarayon sifatini yanada oshirish imkoni ochiladi.

Buning uchun qator vazifalarni amalga oshirish kerak, jumladan, fanlar kesimida mavjud muammolar va o‘qituvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda, tajribali va mahoratli o‘qituvchilarni ta’lim muassasalariga, o‘qituvchilarga biriktirish mumkin. Natijada esa, tajribadan o‘tgan texnologiyalar yo‘nalishlar bo‘yicha turkumlashtirilib o‘qituvchilarga yetkaziladi hamda amaliyotga joriy etiladi.

Barchamizga ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, o'quv-tarbiya jarayoniga innovativ ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni samarali joriy etilishi ko'p jihatdan pedagog mahorati, bilimdonligi, ijodkorligi, madaniyati, uning ijtimoiy-psixologik sifatlariga bog'liq bo'ladi [8].

Hozirgi globallashuv davrida kasbiy va shaxsiy faoliyatimizni raqamli texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, tizim mutaxassislari, o'qituvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda metodik xizmatni raqamli texnologiyalar va modulli o'qitish tizimi asosida ham offlayn, ham onlayn tarzda samarali tashkil etish zarurati mavjud.

Modulli o'qitish tizimi inson miyasining o'zlashtirish tizimiga asosan vujudga kelgan. Inson miyasi infarmatsiyani (axborotni) oqim sifatida yaxlit holicha emas balki kvant (bo'linmas miqdor) ko'rinishda eng yaxshi qabul qiladi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak ta'limni ya'ni o'qitishni inson bosh miyasining o'zlashtirish tizimiga moslashtirish g'oyasi asosida tashkil qilish eng samarali yo'l ekanligi e'tirof etilmoqda.

Professor N.H. Avliyoqulov tabiri bilan aytganda "Modul bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanning bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgan" [10].

Har bir moduldagi mikro modul mutaxasislik fanlarining shakllantirishda ma'lum maqsad va vazifani bajaradi, uning maqsadlari davlat ta'lim standartlarida yoki talablarida aks ettirilgan bo'ladi va mutaxassislik faninini uzlashtirishning bosh maqsadini ifodalaydi.

Bunda ilg'or ish tajribasiga ega kreativ o'qituvchilar ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'z dars ishlanmalarini hamkasblari bilan o'rtoqlashishi, munozara yuritishlari mumkin bo'ladi. Natijada, onlayn va oflayn rejimlarida o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalari tezkorlik bilan ommalashtiriladi, tizimdagi xodimlarning metodik ehtiyojlarini aniqlab, ularga masofadan uslubiy yordam beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim tarbiya va ilm-fan sohalarining rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni, 2020-yil 6-noyabdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, 2021-yil 25-yanvardagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorlari hamda O'zbekisron Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 29-yanvar "Xalq ta'limi sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 21-son, hamda 2021-yil 23-martidagi "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari faoliyatini takomillashtirish, kurslardagi ta'lim sifatini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 80-son buyruqlaridan kelib chiqadigan vazifalar ijrolari amalga oshirilib kelinmoqda.

Aytish joizki, 2021-yilning 1-martidan boshlab xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog xodimlari uchun "Hayot davomida o'qish" tamoyili asosidagi malaka oshirish ta'lim ishini boshlangan edi. Bu yo'nalishda uzluksiz kasbiy rivojlantirish electron platformasi yaratildi. Elektron platforma pedagog va rahbar xodimlarga xohlagan vaqtda va xohlagan joyda turli gadjetlar orqali ulanish, shuningdek, o'z kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, uzluksiz malaka oshirish imkoniyatini berdi.

Uzluksiz malaka oshirishda pedagoglarning ta'lim olish jarayonlari nazorati maxsus elektron platforma asosida amalga oshiriladi

va inson omili minimallashtiriladi. Jumladan, elektron platformada rahbar va pedagog xodimlar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratildi:

• maxsus platforma “tas-ix” da joylashtirilgani va personal kompyuter bilan birga mobil telefon orqali (android, ios) kirish imkoniyati;

• mustaqil onlayn ro‘yxatdan o‘tish va malaka oshirish;

• har bir tinglovchining shaxsiy kabineti;

• malaka oshirishni boshlashdan oldin kasbiy kompetensiyalar bo‘yicha diagnostikadan o‘tish;

• diagnostika natijalariga asosan individual kasbiy rivojlanish traektoriyasining shakllanishi;

• individual traektoriyaga asosan platformadan tomonidan ehtiyojga asoslangan kurslarning taklif etilishi;

• har bir kursdagi alohida mavzu bo‘yicha videodars, taqdimot, adabiyotlar mavjudligi;

• har bir mavzudan keyin o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkoniyati (agarda tinglovchi ma’lum mavzuni o‘zlashtirishi past bo‘lsa keyingi mavzular ochilmaydi);

• rahbar va mutaxassislar kamida 30 soat, pedagoglar 36 soat malaka oshirishdan o‘tgandan keyin malaka oshirganlik to‘g‘risidagi elektron sertifikat;

• har bir tinglovchining natijalaridan kelib chiqib shaxsiy portfoliosi shakllanishi;

• muqobil malaka oshirish shakllaridan foydalanish va uchun muayyan kredit to‘plash imkoniyati;

• malaka oshirish davrida turli vebinarlarda cheklanmagan vaqtda va cheklanmagan tinglovchilar soni ishtirok etishi (bunda tinglovchi onlayn vebinarda ishtirok etmasa vebinarning arxivini ko‘rishi mumkin);

• vebinarlar o‘tkazish payida turli onlayn so‘rovnomalar o‘tkazish imkoniyati;

• yaratilgan kurslar sifatini baholash (5 balli tizimda);

• tinglovchilar va tyutorlar o‘rtasida o‘zaro muloqot qilish va fayl almashish;

• tinglovchilar tomonidan o‘zlarining mualliflik kurslarini joylashtirish va boshqa tinglovchilarga o‘rtoqlashish.

Shunday qilib, o‘qituvchilarning mahoratlarini uzluksiz oshirish mexanizmlarini amaliyotga samarali joriy etish, ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalarini keng joriy etish va zamonaviy xorijiy baholash tizimini qo‘llash orqali hal etish mumkin [8].

Bularni Buxoro pedagogik mahorat markazida olib borilayotgan ishlar misolida ko ‘rish mumkin. Markazda BMTning ta’lim masalalari bo‘yicha kordinatori, YUNESCO va YUNISEF xalqaro tashkilotlari mas’ul xodimlarining, Shvetsariyaning O‘zbekistondagi elchisining tashrif buyurishi hamda bergan maslahatlari bu boradagi yutuqlarning amaliy ko‘rinishidir.





Xorijiy mamlakatlar (Janubiy Koreya, Italiya, Xitoy, Malayziya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Afrika) ta’limini milliy ta’lim tizimimizga

xalqaro ta’lim yutuqlarini singdirishda muhim ahamiyat kasb etdi va pedagoglar, tarbiyachilarning amaliy tajribasini boyitdi.

Yaponiyaning Nagoya Universiteti professori Sarkar Arani Moxammad Rizoning mahorat markaziga tashrif buyurishi Yaponiya va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi ilg‘or amaliyotlar va ularning ta’lim tizimiga joriy etilishi haqidagi fikr almashuv ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, YUNESKOning ta’lim bo‘limi boshlig‘i Bojana Zivkovich boshchiligidagi mas’ul xodimlarning tashrif buyurishi, “Ishonch” loyihasi doirasida 2026-yilda rejalashtirilgan ta’mirlash bo‘yicha loyiha ishlari va kelgusidagi hamkorlik masalalarining kelishib olinishi yuksalish va taraqqiyot yo‘lidagi dadil qadamlardir.





2025-yilda jamoaning **4 nafar** professor-o‘qituvchilari **Malayziya**da bo‘lib, ta’limda zamonaviy yondashuvlar bo‘yicha ushbu davlat tajribasini o‘rgandilar. O‘zbekistonning Malayziyadagi elchisi Karomidin Gadoyev bilan uchrashuvlari va ta’lim tizimidagi hamkorlik masalalari borasida fikr almashildi. Unda o‘zbek va malay xalqlarining bir-biriga o‘xshash madaniyati, ta’lim tizimi va islomiy qadriyatlariga atroflicha to‘xtalib, ta’lim tizimidagi hamkorlikning istiqboldagi rejalari muhokama etildi. Bugungi kunga kelib Malayziyaning yirik Universiteti bilan tajriba almashuv bo‘yicha kelishuvga erishilganligi, dunyoning top-550 universitetlari ro‘yxatiga kiruvchi Malayziyadagi **“MARA”** texnologiya univer-



siteti bilan imzolangan kelishuv ham fikrimizning yorqin dalilidir.

Fransiya elchisi viloyatdagi fransuz tilini rivojlantirishda pedagogik mahorat markazdai olib borilayotgan o‘quv-uslubiy ishlar haqida xabardor bo‘lib, markazning fransuz tili metodisti uchun o‘quv-uslubiy ishlari jarayonida foydalanishi zarur bo‘lgan o‘quv materiallari to‘plamini sovg‘a qiladi.

2026-yil fevral oyida A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instiuti hamda Fransiyaning **“Francophonia”** markazi o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi rahbari A.Xamidov va markazning **5 nafar** professor-o‘qituvchilari Fransiyaning Nitsa shahriga “Francophonia” markaziga malaka oshirish uchun tashrif buyurdilar va ular bilan hamkorlik memorandumlarini imzolab, hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdilar. Mahorat markazida rus, ingliz, fransuz, nemis tillari bo‘yicha xorijiy ekspertlarning o‘quv mashg‘ulotlari o‘tishi an’anaga aylangan.



Zamonaviy ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarda uzluksiz kasbiy rivojlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy, nazariy va amaliy seminar-treninglar, metodik turlar, mahorat dars-mashg‘ulotlari hamda konferensiyalarni tashkil etish negizida pedagoglarni, shuningdek, metodistlar, bo‘lg‘usi pedagoglar, magistrlar, ilmiy izlanuvchilar hamda sohaning mas’ul mutaxassislarini yangi zamonaviy metodikalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Albatta, bu ular faoliyatiga akademizm, dinamizm va tezkorlik baxsh etadi va ta’lim natijaviyligini oshiradi.

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi xorijiy tajribalarni o‘rganish va o‘rgatish bo‘yicha Respublika miqyosidagi tadbirlarning tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.



2025-yilda **“PIRLSga tayyorlanish va o‘tkazish”** bo‘yicha respublika o‘quv-seminarining Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazida o‘tkazilishi va unda “Buxoro tajribasi” ning o‘rganilishi buning yorqin dalilidir.

Mahorat markazida rahbariyatning qat’iy talabi va jamoa a’zolarining fidoyiligi bilan fanlarni o‘qitishga yangicha yondashuvlar, ta’lim tizimiga xorijiy tajribalarni keng joriy etish bo‘yicha muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Natijada metodologiya, ong va tafakkur yangilanmoqda. **“Ochiq darslar”, “Mahorat darslari”, “Integrallashgan darslar”**ni o‘tish va ularni tahlil qilish muntazam



yo‘lga qo‘yilgan. Markaz rahbariyati har bir kafedraning amalga oshirayotgan ishlarini muntazam o‘rganib, metodik kengash yig‘ilishlarida baholab boradi.

O‘quv mashg‘ulotlaridan bo‘sh vaqtlarida professor-o‘qituvchilar olis hududlardagi maktablar, ko‘rsatkichi past maktablarda bo‘lib, uslubiy yordam ko‘rsatishlari odat tusiga kirgan. Talim klasteri tizimida biriktirilgan maktablarda fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari, muammo va yechimlarga oid o‘quv seminar, “Mahorat darslari” o‘tkazib kelinmoqda. Eng avvalo, maktab o‘qituvchilarining talab va ehtiyojlari so‘rovnomalar orqali o‘rganilib, shu asosda metodik yordam ko‘rsatish samarali yo‘lga qo‘yilgan. O‘quv-metodik qo‘llanma, ko‘rsatma va tavsiyalar muntazam tayyorlab, ularga taqdim etilmoqda.

Aytish joizki erishilgan yutuqlarlarga qaramasda uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yanada yuksaltirish uchun mavjud muammolar yechimini topib borishi kerak. Mavjud muammolardan bittasi, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash asosida kasbiy rivojlanishini ta’minlashdir. Buning uchun har bir o‘qituvchini kasbiy rivojlanishi tashxis natijalariga asosan individual kasbiy rivojlanish traektoriyasini shakllantirish joizdir. Shu asosda muvofiq rivojlantiruvchi variativ o‘quv dasturlari ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish kerak bo‘ladi.

Maktab ta’limi tizimining, xususan, umumiy o‘rta ta’limning saviyasi ko‘p jihatdan unda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning kasbiy salohiyati bilan belgilanadi. Maktabdagi ta’lim sifati undagi o‘qituvchilarning saviyasidan yuqori bo‘lolmaydi. Ushbu obyektiv haqiqatlar tizimdagi, xususan, maktablardagi ta’lim sifati ularda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning kasb mahoratiga bog‘liqligini ifodalaydi. Shuning uchun “Hayot davomida malaka oshirish “vazifalarning aynan xalq ta’limi xodimlarining kasbiy rivojlantirish tizimini isloh qilishga qaratilgan. Bu borada Buxoro viloyati PMM “Hayot davomida malaka oshirish “maqsadida yaratilgan “Uzluksiz kasbiy ta’lim” 2024-yilgi elektron platformasi kontentini shakllantirishda Respublikada tayanch kafedralar sifatida “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi “Amaliyotchi psixologlar” va “Ijtimoiy fanlarni o‘qitish metodikasi” “Tarix” fanlari tinglovchilari uchun 36 soatlik “Uzluksiz kasbiy ta’lim” kurslariining o‘quv-uslubiy majmualari, taqdimotlari, test topshiriqlar, so‘rovnomalari, exspert xulosalari va 72 ta video darslar yaratildi va elektron plarformaga joylashtirilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib, malaka oshirish sifatii va samaradorliginini yanada oshirish borasida quyidagi tavsiyalarimizni berishimiz mumkin:

o‘qituvchilarni kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va uning asosida asosida kasbiy rivojlanishini ta’minlash;

har bir o‘qituvchini kasbiy rivojlanishi tashxis natijalariga asosan individual kasbiy rivojlanish traektoriyasini shakllantirish;

shu traektoriya asosda muvofiq rivojlantiruvchi variativ o‘quv dasturlari ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;

har bir o‘qituvchini kasbiy rivojlanish portfoliosini yaratish;

hududiy kasbiy rivojlanish platformasini yaratish orqali har bir o‘qituvchi kasbiy rivojlanishini onlayn nazorat qilish.

markaz professor-o‘qituvchilarini xalqaro tajribalar asosida xorijiy oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot institutlariga stajirovkalarga yuborish;

malaka oshirish kurslariga jalb etiladigan pedagoglarning kasbiy ehtiyojini aniqlash (diagnostik tahlil), ehtiyojidan kelib chiqib o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

Tabiiy fan yo‘nalishida yosh olimlar bilan tadqiqotlar olib borish maqsadida “Geografik tadqiqot maydonchasi”ni tashkil etish;

malaka toifa sinovlaridan o‘tishda qiynalayotgan pedagoglar uchun rivojlantiruvchi platforma yaratish;

olis va chekka hududlardagi va malaka toifa sinovlaridan bir necha marotaba o‘tolmagan pedagoglarni tayyorlash uchun sayyor metodik xizmat yo‘lga qo‘yish;

olis va chekka hududlardagi o‘qituvchi va tarbiyachlarni uzluksiz kasbiy mahoratini oshirish uchun elektron dastur yaratish va maxsus (“Olis hudud”) platforma orqali ularni o‘qitish (onlayn shaklda);

og‘ir vaziyatda qolgan, tarbiyasida muammosi bor bolalar bilan ishlashda “tezkor” metodologik yordam ko‘rsatish platformasini yaratish;

maktablarda integrasiyalashgan nogironligi bo‘lgan bolalar bilan faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi va defektologlarni gospital pedagogika dasturlari asosida o‘qitish.

Xulosa qilib aytsak, Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi jamoasi keyingi yillarda ham ta’lim-tarbiya, metodikani rivojlantirish, xorijiy tajribalarni ta’lim jarayoniga keng tadbiq etish borasida yuksalish va taraqqiyot yo‘lidan boraveradi va Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratuvchi yoshlar ta’lim-tarbiyasiga munosib hissa qo‘shaveradi, deb qat’iy ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim tarbiya va ilm-fan sohalarining rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.

2. 2020-yil 6-noyabdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ -4884-son, Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son Qarori

4. O‘zbekisron Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 29-yanvar “Xalq ta’limi sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 21-son buyrug ‘i

5. O‘zbekisron Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 23-martidagi “Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari faoliyatini takomillashtirish, kurslardagi ta’lim sifatini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 80-son buyrug‘i.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror: 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son [Elektron manba]. -URL: https://lex.uz/uz/docs/-6981085

7. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida” gi 246-sonli buyrug‘i URL: https://lex.uz

8. Shlyayxer A. Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? / so‘z boshi Sh.Shermatov, H.Umarova; Umumiy tahrir D.Norboyeva; tarjimonlar: R.Axmatova, D.Norboyeva. – Toshkent: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022 – 344 bet.

9. Po‘latov Sh. Ta’lim menejmenti yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. O‘quv qo‘llanma. // Toshkent – “Yosh kuch”, 2019.591 bet

10. Avliyoqulov N.X. O‘qitishning Modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, – Buxoro, 2001.

Internet resurslari:

11. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
12. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
13. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
14. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.